

O'QUVCHILARNING KASB TANLASHGA MUNOSABAT TIZIMINI
O'RGANISH USULLARI

Xamrakułova M.M.

Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Annotasiya: *Mazkur maqolada har bir shaxsni shakllantirish jarayoniga, ayniqsa, uning u yoki bu sohaga yo'nalgan salohiyatiga jiddiy e'tibor qaratish orqaligina taraqqiyot barqarorligini ta'minlash mumkinligi haqida aytib o'tilgan. Bu o'rinda har bir shaxsning o'ziga xos kasbiy qiziqishlari, mayllari, tasavvurlari va muayyan kasbning ko'nikma hamda malakalari haqida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish, binobarin, shu asosda munosabatda ta'sirchanlik imkoniyatlarini to'laroq ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etishi izohlangan.*

Kalit so'zlar: *Kasbiy moslashish, irodaviy sifatlar, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy yaroqlilik, kasbiy tasavvurlari.*

Abstract: *This article mentions that it is possible to ensure the stability of development only by paying serious attention to the process of formation of each person, especially to his potential in one or another field. In this place, having relevant information about each person's unique professional interests, inclinations, imaginations and skills and qualifications of a particular profession, and therefore, fully realizing the possibilities of influence in relation to this basis. It is explained that the issue is important.*

Keywords: *Professional adaptation, willful qualities, professional orientation, professional fitness, professional visions*

Insonda kasbga mehr – muxabbat, moyillik, qiziquvchanlik his-tuyg'ulari va ularni shakllantirish genezi ilk bolalikdan boshlanadi. Shu bois individ kamol topayotgan mize, mikro va makro muhit unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. O'zaro ta'sir, o'zaro qo'llab – quvvatlash, o'zaro missiy yaqinlik, imitatsiya, attraksiya mavjudligi tufayli muayyan kasbga munosabat xususiy hodisadan (yakka holatdan) umumiy, ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi voqelikka aylanadi.

Bu masala, eng avvalo, kadrlar salohiyatiga jiddiy e'tibor qaratishni, o'sib kelayotgan avlodning kasbiy tayyorgarligi va kasb tanlashga nisbatan munosabatini jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy – iqtisodiy talablari asosida turlicha tashkil etishni taqozo etadi. Qolaversa, Respublikada izchillik bilan amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun ushbu masalaning o'ziga xos yechimlarini izlashda muhim o'rin tutmoqda. Binobarin, Respublika Prezidenti tomonidan o'rinli e'tirof etilganidek, «Ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur xar xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan halos bo'ladi. Va har qaysi inson Ollox taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq bahshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini xatto tasavvur qilish xam oson emas.

Oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a‘zosi qo‘shadigan hissa shu hisobdan beqiyos bo‘lishi muqarrar».

Kasb tanlash munosabat tizimi tadqiqot usullarini saralashda ma‘lum ijtimoiy – psixologik talablardan kelib chiqqan xolda o‘rganish uchun psixologiya fanining vakillari tomonidan yaratilgan va amaliyotda qo‘llanilayotgan mezonlar tanlab olindi va uning maqsadiga mos o‘rinlaridan foydalanildi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, kasb tanlashga munosabat motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi to‘rt yunalish tadqiqot ishining umumiy maqsadiga singdiriddi. Jumladan, birinchi yo‘nalishda qiziqishlarni o‘rganish orqali kasb tanlashga munosabat motivatsiyasini shakllantirish usullari; ikkinchi yo‘nalishda shaxs yo‘nalganligini tashxislash orqali kasb tanlashga munosabat motivatsiyasini tarkib toptirish usullari; uchinchi yo‘nalishda kasbiy ustanovkalar shakllanishini o‘rganish orqali kasb tanlashga munosabat motivatsiyasining namoyon bo‘lishiga qaratilgan usullar majmuasi; to‘rtinchi yo‘nalishda qadriyatlar orqali kasb tanlashga munosabat motivatsiyasini ruyobga chiqarishga qaratilgan vositalar majmuasi amaliyotga tatbiq etildi.

Endi, xar bir usulning (yoki yunalishning) tadqiqot maqsadini bevosita amalga oshirishdagi vazifasi xaqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Birinchi yo‘nalishga taalluqli usullar majmuasining asosiy maqsadi respondentlarda kasb tanlashga munosabat tizimining shakllanish jarayonidagi shaxs qiziqishlarining o‘rni va ijtimoiy axamiyati orqali tadqiq qilishdir. Buning uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

1. «qiziqishlar xaritasi»

2. Respublika tashxis markazida chop etilgan «qiziqishlar xaritasi»

qiziqishlar asosida kasb tanlashga munosabat tizimini o‘rganishga qaratilgan qo‘shimcha usullar.

«Qiziqishlar xaritasi» metodikasini qo‘llashga oid tafsilotlar mavjudligi tufayli uni qo‘llashning tadqiqot maqsadlariga mos jixatlari xaqida muloxaza yuritimiz. Chunonchi, «qiziqishlar xaritasi» yordamida olingan ma‘lumotlarni qayta ishlashda uning talablariga qat‘iy rioya qilindi.

Qayta ishlangan ma‘lumotlarni taxlil qilishda yordamchi usullar orqali qiziqishlarning beqarorligi yoki barqarorligi, ijtimoiy keng yoki torligi, kasbiy tasavvurlarning mavjud yoki mavjud emasligi, respondentlarning kasb tanlashga mas‘uliyat bilan yoki yuzaki qarashlari kabi qator mezonlar inobatga olingan xolda, shartli ravishda kasb tanlashga munosabat tizimi deb ataluvchi shkalaga kiritildi.

Kasb tanlashga munosabat tizimi shkalasida respondentlar faoliyatida shakllanayotgan «faol- ijobiy», «ijobiy», «indifferent» munosabatlar motivatsiyasining ular xarakteriga mos o‘rtacha –umumiy, qiyosiy –tipik ko‘rsatkichlari ko‘lami kiritildi va bu esa izlanish maqsadiga mos ijtimoiy – psixologik mezonlarni tahlil qilishga imkon yaratdi.

Ikkinchi yo‘nalish usullari majmuasining tafsilotiga o‘tamiz.

Bu usul V.Smekal xamda M.Kucherlar tomonidan «Yo‘naltiruvchi anketa» shaklida ishlab chiqilgan o‘ulib, uning yangi variantidan foydalanildi. Mazkur usulga muvofiq anketa an’anaviy 27 ta savoldan emas, balki 30 ta savoldan iborat bulib, unda uziga uzi, o‘zgalarga va faoliyatga nisbatan moyillik darajalari aniqlandi. Ushbu metodni qo‘llash uchun tadqiqot maqsadiga mos quyidagi vazifalarni bajarishga xarakat qildik:

1) respondentlarda kasb tanlash jarayoni va unga munosabat tizimining shakllanishi bilan bog'liq o'ziga o'zi, o'zgalarga, faoliyatga yo'nalganlik uyg'unligini aniqlash;

2) shaxs yo'nalganligi zahirida yotuvchi munosabat motivatsiyasi xususiyatlarini o'rganish;

3) shaxs yo'nalganligi orqali kasb tanlash jarayoniga faol – ijobiy, ijobiy, indifferent munosabatlar mavjudligiga ishonch xosil qilish;

4) kasb tanlash jarayoniga munosabat tizimi (motivatsiyasi) va dinamikasi kursatkichlarini aniqlash va sinaluvchilarga xos jihatlariga ijtimoiy-psixologik baxo berish.

Olingan empirik ma'lumotlarning qayta ishlanishi,

metodning shaxs yo'nalganligi bilan kasb tanlashga munosabat tizimi urtasidagi uyg'unlikning respondent faoliyatida, faolligida va xulq-atvorida qay darajada shakllanayotganligiga baxo berish bilan xam mazkur usul qimmatlidir.

Uchinchi yo'nalish usullari majmuasi respondentlarda kasbiy ustanovkalar asosida shakllangan kasb tanlashga munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlarini aniqlash va tadqiq qilishga qaratilganligi bilan xarakterlidir. Chunki, xar bir usmir shaxsining kasbiy ustanovka tizimiga baxo bermay turib, kasb tanlashga munosabat tizimini baxolab bo'lmaydi. Buning uchun J.Kraytsning «Kasbiy ustanovkalar yetuklik shkalasi» I.M.Kondakovning «Tipik kasbiy ustanovkalar ro'yxati», K.B.Qodirovning «Kasbiy ustanovkalarni aniqlash metodikasini milliy muxitga moslashtirish» varianti kabilardan foydalanildi.

Tabiiyki, ushbu metodikalarni qo'llash orqali respondentda kasbiy ustanovkalar ko'lamining (qat'iyatsizlik, ratsionallik, optimistik munosabatlar, o'z imkoniyatlariga yuqori baxo berish, boshqalarga bog'liqlik) shakllanganlik darajasiga baho beriladi. Biz esa, o'z tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan xolda, ularda kasbiy ustanovkalar asosida shakllangan kasb tanlashga munosabat tizimi namoyon bo'lishining o'rtacha-umumiy, qiyosiy-tipik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun qo'shimcha usullardan foydalandik. Bunda asosan yuqori darajadagi ratsionallik, uz optimistik munosabatlarining namoyon bo'lishi, o'z imkoniyatlariga adekvat yoxud noadekvat baxo berish, o'zgalar fikrini qadrlash va undan oqilona foydalanishga intilish, boshqalarga bog'liqlik va o'zgalar fikriga ergashish, mustaqil fikrlashning mavjud yoki mavjud emasligi asosida yotuvchi kasbiy tasavvurlar ko'lami, munosabat motivatsiyasi talqini uchun asos qilib olindi va u faol-ijobiy, ijobiy, indifferent munosabat tizimi bilan birlashtirildi. Bu esa, kasbiy o'zlikni anglash va rivojlanish uchun muxim kasbiy ustanovka va munosabat uyg'unligi ko'rsatkichlarini taxmin qilishda xamda xar bir respondentning o'z kasbiy kelajagiga baxo berishida muxim axamiyatga egadir.

To'rtinchi yo'nalish usullari majmuasi, bu qadriyatlar asosida shakllangan kasb tanlashga munosabat tizimini aniqlashga qaratilganligi bilan xarakterlidir. qadriyatlar yunalishi metodikasi dastavval M.Rokich tomonidan ishlab chiqilgan. Aytish joizki, ushbu metodika keng yoritilgan va olimlar tomonidan uning turli variantlari ishlab chiqilgan. Biz uz tadqiqotimizda I.G.Senin tomonidan taqdim etilgan usulga asoslandik, xolos. Bunga asosan 8 yo'nalishdagi maqsadli qadriyatlar (shaxsiy istiqbol, yuqori moddiy ta'minlanganlik, ijodkorlik, faoliyatga ijtimoiy munosabat, o'z ustida ishlash, yutuqlarga yo'nalganlik, ruxiy qoniqish, o'zlikni saqlash) va 5 yo'nalishdagi vositali qadriyatlar (kasb-xunar olami, o'quv- tarbiya soxasi, oilaviy xayot, ijtimoiy xayot, qiziqishlar olami) ning o'smir faoliyatida shakllanganlik xolati bo'yicha ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan xolda,

mazkur qadriyatlarining xar bir o‘smirning kasb tanlashga munosabatini shakllantirishga bo‘lgan ta‘siri va ko‘lamini aniqlashga xizmat qiluvchi qo‘shimcha usullar xam qo‘llanildi. Natijada, respondentlarda kasb tanlashga nisbatan munosabatlar tizimi (faol-ijobiy, ijobiy, indifferent) motivatsiyasini yuqorida qayd etilgan qadriyatlar asosida tadqiq qilish imkoniyati yuzaga keldi. Bu imkoniyat esa qadriyatlar ta‘sirida shakllanuvchi kasb tanlashga munosabat tizimi ko‘rsatkichlarini ma‘lum ijtimoiy-psixologik mezonlar asosida talqin qilishga xizmat etishi shubxasizdir.

Umuman, yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, kasb tanlash muammosi keng ko‘lamli va ko‘p qirrali jarayondir. Bu jarayonni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borilganligini alohida qayd etish lozim. Binobarin, bu yo‘nalishdagi pedagogik va psixologik xamda ijtimoiy – psixologik tadqiqotlarning mavjudligi izlanishimizga ilmiy – nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Ushbu ilmiy – nazariy tadqiqotlarga tayangan xolda kasb tanlashga munosabat motivatsiyasi talqinlarini bayon etishga xarakat qiladi.

1-jadval. Kasb tanlash jarayoniga munosabat tizimi shakllanishining o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillari

| Munosabat motiva-siyasi | Munosabat shakllari | | |
|-------------------------|--|---|---|
| | Faol-ijobiy | Ijobiy | Indifferent |
| qizikish | Barqaror qiziqishlar, keng kulamli ijtimoiy faollik, kasb mazmuni va istiqboliga qiziqish | Barqaror qiziqishlar, ijtimoiy axamiyatli kasb mazmuniga | Beqaror qiziqishlar, kasbiy tasavvurlarning yo‘qligi, kasb tanlash jarayoniga yuzaki qarash |
| Shaxs yo‘nalganligi | O‘ziga o‘zi mas‘uliyat bilan yondashuv, o‘zini-o‘zi rivojlantirishga intilish. o‘zgalar fikrini qadrlash, shaxslararo munosabatga yuqori moyillik | O‘ziga uzi, ijobiy faoliyatga munosabat, shaxslararo munosabat asosida yondashuv, faoliyat maxsuldorligiga qiziqish | O‘ziga o‘uzi e‘tiborsizlik, shaxslararo munosabatga loqaydlik, faoliyat natijalari bilan qiziqmaslik, o‘z imkoniyatlari ko‘lamiga yuzaki yondashuv |
| Kasbiy ustanovka | Yuqori darajadagi ratsionallik va optimistik munosabatning namoyon etilishi. O‘z imkoniyatlariga adekvat baxo berish. O‘zgalar fikridan oqilona foydalanish. | Ma‘lum darajadagi ratsionallik va optimistik munosabatlar, uzgalar fikrini qadrlash, faoliyat natijalariga ishonch bilan qarash | qat‘iyatsizlik, o‘z imkoniyatlariga adekvat baxo berish, boshqalarga bog‘liqlik, o‘zgalar fikriga ergashish, faoliyat natijalariga astoydil qiziqmaslik |
| qadriyat | Shaxsiy iustiqbol va ijtimoiy manfaat uyg‘unligi. | Shaxsiy iustiqbol va ijtimoiy manfaatlar | Shaxsiy iustiqbol va egoistik manfaatlar uyg‘unligi, ruxiy — |

| | | |
|---|---|---|
| o'z ustida jiddiy ishlash, o'zlikni saqlash, yutuqlarga qat'iy yunalganlik, aloxida ijodkorlik, ruxiy — ma'naviy qoniqish | uyg'unligi, o'zini — o'zi rivojlantirish, yutuqlarga yo'nalganlik | ma'naviy qoni— qishning etarli darajada emasligi, o'z ustida ishlashga yuzaki qarash, ruxiy — ma'naviy qoniqishning etarli emasligi |
|---|---|---|

REREFERENCES:

1. Мирбобоев, М. И. (2022). Мактабгача ёшдаги болаларнинг координацион қобилиятини ривожлантириш. УзМУ хабарлари, 1(5), 79-81.
2. Nilufar, Q., & Zahro, S. (2024). Exploring the intricacies of phraseology in integration with pragmatics. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
3. Shukurova, Z. F. (2023). Specific features of phraseological and lexical meanings. *Экономика и социум*, (7 (110)), 299-302.
4. Farxodovna, S. Z. (2022). Different approaches to the phraseology in Linguistic study.
5. Shukurova, Z. F. (2024). Exploring phraseological units with the notion of friend: a comparative analysis in English and Uzbek languages. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(03), 197-202.